

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkar Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNIIY MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSALARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF SPECIAL SUBJECT AND CRIMINAL LIABILITY OF OFFICIALS IN CRIMES IN THE FIELD OF ECOLOGY

Utemuratova Sapargul Shamshetovna,

Acting Professor of Karakalpak State University,

Doctor of Law (DSc)

Abstract. In this article, the concept of a special subject of crime in environmental crimes and the issues of criminal liability of officials are analyzed from a scientific-theoretical and practical point of view. The significance of the institution of a special subject in criminal law is substantiated, and its correct definition plays a decisive role in the qualification of a crime. On the example of the articles of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan on ecology (Articles 193-204), the criminal liability of officials, the criminal-legal consequences arising in connection with their official duties, powers, and obligations are highlighted.

Keywords: crimes in the field of ecology, special subject, official, criminal liability, environmental safety, official powers, qualification of a crime, environmental protection.

EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDAGI MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI

Utemuratova Sapargul Shamshetovna,

Qoraqalpogʻ davlat universiteti v.b professori yu.f.d (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologiya sohasidagi jinoyatlarda jinoyatning maxsus subyekti tushunchasi hamda mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarligi masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Jinoyat huquqida maxsus subyekt institutining ahamiyati, uni toʻgʻri aniqlash jinoyatni kvalifikatsiya qilishda hal qiluvchi oʻrin tutishi asoslab berilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining ekologiyaga oid moddalar (193–204-moddalar) misolida mansabdor shaxslarning jinoiy javobgarligi, ularning xizmat vazifalari, vakolatlari va majburiyatlari bilan bogʻliq holda vujudga keladigan jinoiy-huquqiy oqibatlar yoritilgan.

Kalit soʻzlar: ekologiya sohasidagi jinoyatlar, maxsus subyekt, mansabdor shaxs, jinoiy javobgarlik, ekologik xavfsizlik, xizmat vakolatlari, jinoyatni kvalifikatsiya qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N32>

Jinoyat huquqida jinoyat subyekti umumiy tushunchasi bilan bir qatorda, jinoyatning maxsus subyekti tushunchasi ham mavjud. Maxsus subyekt tushunchasi ayrim shaxslarning belgilangan majburiyatlarini bajarishi yoki ularning kasbiy faoliyati bilan bogʻliq alohida jinoyat turlari bilan farqlanadi. Boshqacha aytganda, bu tushuncha muayyan kasb egalari yoki jamiyatda maxsus vazifalarni bajaruvchi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilaydigan meʼyorlar va ularning qonuniy asoslari bilan bogʻliqdir. Shuning uchun ham qonun chiqaruvchi tomonidan boshqa jinoyatlardan farqli oʻlaroq, baʼzi bir jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilashda ularning subyekti sifatida jinoyat

sodir etishga qodir bo'lgan har qanday shaxsni emas, balki qonunga asosan alohida xususiyat yoki belgilarga ega shaxs nazarda tutiladi.

Har bir muayyan holatda jinoyatning maxsus subyektlarini tasvirlovchi xususiyat va belgilarini to'g'ri aniqlash jinoyat qonuning amalda to'g'ri qo'llanishining zaruriy shartida, chunki, umuman olganda, bir qator hollarda jinoyat subyektlarining xususiyatlari, uning alohida belgilari jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Jinoyatning maxsus subyekti qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi [1; 150-154-b].

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunida jinoyatning maxsus subyekti tushunchasiga umumiy ta'rif berilmagan. Bu borada professor Q.R.Abdurasulova, jinoyatning maxsus subyekti tushunchasiga umumiy subyekti belgilari bilan bir qatorda, qo'shimcha belgilarga ham ega bo'lgan shaxs tushuniladi deb berilgan ta'rif nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega [2; 34-b], ekanligini ta'kidlaydi. Bu jinoyatlar muayyan davlat va jamiyat sohalarida sodir etiladi, shu bois ularni deyarli har kim ham sodir qilavermaydi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning maxsus subyektlari jumlasiga mansabdor shaxslar shuningdek, ma'lum kasb egalari yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar kiradi.

Mansabdorlik jinoyatlari vujudga kelishida davlat apparatining faoliyat yo'nalishlari va amal qilishi jarayonlarida mansab imkoniyatlaridan g'araz maqsadlarda g'ayriqonuniy foydalanish holatlari sabab bo'ladi [3; 6-b].

Mansabdor shaxsni ekologik jinoiy huquqbuzarlik subyekti sifatida tan olish masalasiga kelganda mansabdor shaxs tushunchasini aniqlaydigan qoidalarga murojaat qilish lozim. O'zbekiston Respublikasi JK mansabdor shaxs quyidagicha ta'riflangan: «Doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'iy nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs» [4].

Shu joyda V.R.Rezyukning, mansabdor shaxslar lavozim va xizmat vakolatlariga, maqomiga ega, ammo xizmat vakolatlariga ega bo'lgan va xizmat maqomiga ega bo'lgan barcha shaxslar ham mansabdor shaxslar emas [5; 348-355-b], degan fikrini keltirib o'tish juda o'rinli.

Mansabdor shaxslar va xizmat vakolatiga ega bo'lgan mansabdor bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi farqni ekologiya sohasidagi jinoyatlarda ko'rish mumkin.

Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (JKning 193-m.) va atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rmaslik (JKning 195-m.) jinoyatlarining subyekti mansabdor shaxs hisoblanadi. Ushbu jinoyatlar subyekti mansabdor shaxs tomonidan yuridik harakatlarni sodir etish vakilligi maxsus qaror, reja, nizom va b. normativ hujjatlar bilan belgilanib qo'yilganligidan kelib chiqiladi. Masalan, ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (JKning 193-m.) jinoyatini sodir etishning bir turi ekologiya xavfsizligi talablariga javob bermaydigan obyekttni ishga tushirib foydalanish hisoblanadi.

Sanoat, energetika, transport, kommunal xizmat, agrosanoat, ilm- fan va boshqa obyektlarni foydalanishga davlat komissiyasi a'zolari tomonidan ruxsat etiladi.

Shuning uchun ham ekologik xavfsizlik talablariga javob bermaydigan obyektning ishgatushirganligi ekologiyaga doir qonun hujjatlariga muvofiq, yuridik harakat qilib, obyektning qabul qilish to'g'risidagi hujjatni imzolagan davlat komissiyasi a'zolari javobgarlikka tortilishi kerak.

Agar davlat komissiyasi a'zolari chang, gaz tozalovchi uskunalari o'rnatilmagan (to'la o'rnatilmagan) obyektning ishgatushirilishiga ruxsat bermagan bo'lsa, lekin, obyekt ishgatushsa, javobgarlikka obyektning ishgatushirilishiga ruxsat bergan shaxs tortiladi.

Atrof-muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (JKning 194-m.) jinoyatining subyekt maxsus vakolatga ega maxsus subyekt ekanligi belgilangan. Ushbu jinoyat bo'yicha maxsus vakolatga ega mansabdor shaxslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-sentyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi to'g'risida»gi nizomini tasdiqlash haqidagi 737-sonli qaroriga muvofiq aniqlanadi.

JK ning 195-moddasi bo'yicha javobgarlikka o'z xizmat vazifalaridan kelib chiqib, atrof-muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralari ko'rmagan mansabdor shaxs tortiladi.

Mansabdor shaxs atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlarni sodir etishda bevosita ushbu jinoyatning bajaruvchisi bo'lishi yoki bajarilishi atrof-muhitning ifloslanishini keltirib chiqaradigan buyruq berishi yoxud ekologik qonun hujjatlarini buzuvchilar bilan jinoiy til biriktirishi mumkin.

Birinchi holatda korxona, muassasaning mansabdor shaxsi o'zining lavozimiga taalluqli bo'lmagan, ekologiya sohasidagi xohlagan jinoyatni sodir etishi mumkin. Masalan, o'simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish qoidalarini buzish jinoyati (JK 202-m.). Bunda shaxs JKning 202-moddasi bo'yicha shaxs sifatida jinoiy javobgarlikka tortiladi, chunki shaxsning ushbu jinoyatni sodir etishi uning lavozimiga bog'liq emas.

Keyingi ikki holat avvalgisiga nisbatan bevosita shaxsning lavozimiga bog'liq holda sodir etilishi mumkin. Masalan, tozalagich uskunalarini o'chirib qo'yishga, oqava suvlarni zararsizlantirmasdan [6; 348-355-b] suvga oqizishga, yoki tabiatni muhofaza qilish organining mansabdor shaxsi boshqa shaxslar bilan til biriktirib jinoyat sodir etsa va h. Bunday holatda shaxs ekologiyaga doir hujjatlarni buzgani uchun mansabdor shaxs sifatida javobgarlikka tortiladi.

Demak, ekologiya sohasidagi jinoyatlarda maxsus subyektning aniqlash ularning vazifalarni bajarishi maxsus qaror, reja, nizom va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanib qo'yilganligidan kelib chiqiladi. Lekin ekologiya sohasidagi jinoyatlarning subyektlari faqat muayyan lavozimlarni egallagan va ularga muvofiq ekologik xavfsizlik normalari bilan talablariga rioya qilish bo'yicha o'ziga xos vazifalarni bajaradigan shaxslar bo'lishi mumkin.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning maxsus subyektlari doirasi ancha keng. Adabiyotlarda ko'rsatilganidek, ekologik jinoiy huquqbuzarliklarning bir qator tarkiblarini tavsiflashda, bu normalarning dispozitsiyalarida qayd etilmagan bo'lsa-da, maxsus subyektning belgilarini aniqlashtirish nazarda tutiladi. Jumladan, normalarni mantiqiy talqin qilish usuli bilan jinoiy huquqbuzarlikning maxsus subyekt belgilarining mavjudligi quyidagi moddalarda asoslab beriladi: 197-modda (Er, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish), 199-modda (O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish), 200-modda (Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalarini va

normalarini buzish), 201-modda (Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzish).

Maxsus subyekt JKning 197-moddasida yer, yer osti boyliklaridan foydalanishda texnologik va ekologik xavfsizlik talablariga yoki mazkur tabiiy resurslarni muhofaza qilish bo'yicha qoida va normalarga rioya etish majburiyati zimmasiga yuklatilgan shaxs bo'lishi mumkin, JKning 199-moddasida jinoyat subyekti mansabdor shaxs yoki o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablari qoidalarga amal qilishga majbur bo'lgan shaxslar – aksariyat hollarda agronomlar, brigadirilar va shu kabi mutaxassislar bo'lishi mumkin. JKning 200-moddasida hayvonlarning egalari, karantin qoidalarini yoki O'zbekiston chegarasi orqali hayvonlarni tashish tartibini buzayotgan transport vositalari haydovchilari, chorvachilik fermalari, parrandachilik fabrikalari, go'sht kombinatlari va boshqa korxonalarining, veterinariya nazorati organlarining xodimlari va mansabdor shaxslari jinoyatning subyekti bo'lishi mumkin. Mansabdor shaxslar ham – chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklari, veterinariya-sanitariya nazorati xodimlari, shuningdek, alohida fuqarolar ham (chorva ham parranda egalari, karantin cheklovlarini o'rnatilgan hududdagi taqiqlarni buzib o'tuvchi transport vositalari haydovchilari va boshqalar) veterinariya yoki zootexnika qoidalarini buzish subyekti bo'lishi mumkin. JKning 201-moddasida jinoyatida subyekt o'z kasb faoliyati tufayli ko'rsatilgan talablarga rioya qilishga majbur bo'lgan yoxud kimyoviy moddalardan foydalanadigan va shu sababli ko'rsatilgan mazkur qoidalarga amal qilishga mas'ul hisoblangan shaxs ham bo'lishi mumkin: korxona, laboratoriya, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi bo'yicha rahbarlari va xodimlari bo'lishi mumkin.

Demak, JKning 197, 199 – 201-moddalarida ko'rsatilgan jinoyat har qanday 16 yoshga to'lgan shaxs tomonidan shuningdek, maxsus subyekt tomonidan ham sodir etilish mumkin. Agar, jinoyatni mansabdor shaxs hokimiyat yoki mansab vakolatni suiiste'mol qilish yoki mansabiga sovuqqonlik bilan qaragan holda sodir qilsa mansabdorlik jinoyatlari uchun ham javobgarlikni keltirib chiqaradi. (JKning 205-modda yoki 207-moddasi). Ushbu masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrdagi 36-sonli qarorida sudlarga quyidagicha ko'rsatma beradi, ekologiya nazorati sohasida ishlayotgan mansabdor shaxslarning tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni buzuvchilar bilan jinoiy til birlashtirganlik hollari aniqlanganda, bunday mansabdor shaxslar tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni buzganligi va tegishli mansabdorlik jinoyati uchun javobgarlikka tortilmog'i lozim [7].

Xulosa qilib aytganda, ekologiya sohasidagi jinoyatlarda maxsus subyekt instituti jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va jinoiy javobgarlikni adolatli belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday jinoyatlar ko'p hollarda mansabdor shaxslar yoki muayyan kasbiy majburiyatlarga ega bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etiladi va ularning javobgarligi xizmat vazifalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Mansabdor shaxslar tomonidan ekologik jinoyatlarni sodir etish, asosan, iqtisodiy manfaatlarni ustun qo'yish, foyda olishga intilish bilan izohlanadi. Bu esa ekologik xavfsizlik talablariga rioya etilmasligiga hamda atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazilishiga olib keladi. Shu bois ekologik jinoyatlarda maxsus subyekt belgilarini aniq belgilash, ularning vakolatlari va majburiyatlarini qat'iy nazorat qilish hamda huquqiy javobgarlikni kuchaytirish atrof-muhitni muhofaza qilishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Каримов Х. Жиноятларни квалификация қилишда жиноят субъекти мезонларининг аҳамияти. // Юридик фанлар ахборотномаси-Вестник юридических наук-Ревью оф Лав Ссиенсес 2 (2018) - Б. 150-154.
2. Абдурасулова Қ.Р. Жиноятнинг махсус субъекти. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДЮИ нашриёти. 2005. – Б.34.
3. Ахраров Б.Д. Мансабдорлик жиноятлари учун жавобгарлик//маъсул муҳаррир ю.ф.д., профессор М.Х.Рустамбоев. –Т.:Адолат, 2007. -Б. 6.
4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси [Электрон манба]. // УРЛ: [хттпс://lex.uz/doss/111453](https://lex.uz/doss/111453)
5. Резюк В.И. Должностное лицо как субъект преступления в уголовном законодательстве Российской Федерации: генезис и интенция. // Экономика и право. 2022. Т.32, вып.2. -С.348-355.
6. Резюк В.И. Должностное лицо как субъект преступления в уголовном законодательстве Российской Федерации: генезис и интенция. // Экономика и право. 2022. Т.32, вып.2. С.348-355.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрдаги «Атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиатдан фойдаланиш соҳасидаги жиноятлар ва бошқа ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида» ги 36-сон Қарори.// [хттпс://lex.uz/doss/1442456](https://lex.uz/doss/1442456).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).